

## SEMENTBETON QOPLAMASI PLITALARI ORASIDAGI O'ZGARISHLARNI TAHLIL QILISH

*Hakimov Omonxon*  
*Toshkent davlat transport universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Sementbeton qoplamasida vaqt o'tishi bilan plitalar orasida bir necha millimetrik bo'lgan zinapoyalar bo'lishi mumkinligi, sementbeton qoplamalarini ishlatalish tajribalari ko'rsatib turganligiga misol bo'la oladi.*

Zinalarning shakllanishi qatnov qismining bo'ylama ravonligini yomonlashtiradi, harakatga qarshilikni oshiradi, avtomashinalar harakatini qulayligini kamaytiradi, avtomobilarning vertikal tebranishini keltirib chiqaradi va avtomobil yo'lning qatnov qismiga tushadigan yuklanishini oshiradi. Havo haroratining o'zgarishi va quyosh nurlanishining intensivligi, ko'ndalang choklar ochilishining kengligi o'zgarmas emas va vaqt o'tishi bilan o'zgarishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** *Sementbeton qoplaması, zinapoyalar, plitalar, vertikal tebranishlar, qoplama ravonligi, choklarni sinishi, plita qirralarining shikastlanishi, ekspluatatsiyadavri.*

Mamlakatimizda sementbeton qoplamali yo'llar 1962-yildan boshlab Toshkent shahrining A. Navoiy ko'chasida qurila boshlangan. O'tgan asrning 70-80 yillarda Toshkent halqa avtomobil yo'lida qurilish ishlari boshlangan, keyinchalik, M39 "Almati-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil yo'lida, ushbu avtomobil yo'lining Qashqadaryo viloyatidan o'tgan bo'lagida 1980-1982 yillarda, zamонавиј nemis texnologiyalari asosida Toshkent viloyatida, 1996-2002-yillarda A373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lida va yo'llarda qurilish ishlari olib borilgan. Bugungi kunga kelib, o'zbek avtomagistrali tarkibiga kiruvchi A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynou" avtomobil yo'lida ham qurish va rekonstruksiya qilish ishlari olib borilmoqda. 2024-yilga kelib umumiyligi uzunligi 2131 km sementbeton qoplamali avtomobil yo'llari jahon standartlariga mos ravishda qurilmoqda. Bu esa umumiyl avtomobil yo'lidan, sementbeton qoplamali avtomobil yo'llari 3.5% ni tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin[1].

Sementbeton qoplamalarining strukturaviy xususiyati atrof-muhit haroratining o'zgarishi ta'sirida ekspluatatsiya davrida konstruktsianing deformatsiyasini ta'minlash uchun kengayish choklarining mavjudligidir.

Sementbeton qoplamalarini ishlatalish tajribasi shuni ko'rsatdiki, vaqt o'tishi bilan plitalar orasida o'zgarish bir necha millimetrik bo'lgan zinapoyalar paydo bo'lishi mumkin. Zinalarning shakllanishi qatnov qismining bo'lama ravonligini yomonlashtiradi, harakatga qarshilikni oshiradi, avtomashinalar harakatini kam qulay

qiladi, avtomobilarning vertikal tebranishini keltirib chiqaradi va avtomobil yo'lning qatnov qismiga tushadigan yuklanishini oshiradi[2].

**Fotiadi Andrey Aleksandrovich**, Sementbeton qoplamlarini hisoblash va loyihalashda yangi yondashuvni taklif qildi, bu yo'l to'shamasi konstruksiyasining asosiy parametrlarini aniqlashdan tashqari, yorilish, ko'ndalang choklarning sinishi va qirralarning shikastlanishi kabi zararni rivojlanish jarayonlarini prognoz qilishni o'z ichiga oladi.

Zinapoyalarning hisoblash va prognoz qilish uchun tahlil qilingan modellarning ro'yxati keltirilgan (1-jadval).


1-jadval

Nº	Mualliflar	Hisobiy formulalar (Modellar)	Hisobga olinuvchi atkichlar
1	VSN 197-91 (1991 y.)	$h_{yem} = D^{0.23} \cdot (0.35 - 0.0277 \cdot K_{oem} - 0.25 \cdot C_d + 2.17 \cdot 10^{-5} \cdot T_{sp})$	Hisobiy harakat jadalligi, ing elastiklik moduli, asos vama qalinligi
2	Simpson, A. L. (1994 y.)	$h_{yem} = \frac{8.5 \cdot Q \cdot K_d \cdot m_{em}}{E_o \cdot L^T y} \cdot (1 + K_q \cdot \lg N_{pt})$	Keltirilgan harakat jadalligi, alang choklar orasidagi masofa, ama koefitsienti, xizmat dati, yo'l yoqasi turi, shtiretri
3	IO, H. T (1997 y.)	$h_{yem} = N^{0.25} \cdot [0.0628 + 0.0628 \cdot C_d + 0.3673 \cdot 10^{-8} \cdot Q^2 + 0.4116 \cdot 10^{-5} \cdot L^2 + 0.7466 \cdot 10^{-9} \cdot T_{sp}^2 \cdot H^{0.5} - 0.009503 \cdot K_{oem} - 0.01917 \cdot B_{nq} + 0.0009217 \cdot T_{rem}]$	Keltirilgan harakat jadalligi, tsiya koefitsienti, choklar dagi masofa, iqlim sharoiti, asos plitaning kengligi, xizmat dati
4	Owusu-Antwi,E. B. (1997 y.)	$h_{yem} = N^{0.25} \cdot [0.0238 + 0.0006 \cdot (\frac{L}{10})^2 + 0.0037 \cdot (\frac{100}{K})^2 + 0.0039 \cdot (\frac{T}{10})^2 - 0.0037 \cdot b_{o6} - 0.0218 \cdot a]$	Buzilish o'lchami, asos turi, tsiya koefitsienti, iqlim sharoiti
5	Titus-Glover, L (1997 y.)	$h_{yem} = D^{0.275} \cdot [0.1741 - 0.0009911 \cdot V + 0.001082 \cdot H]$	Buzilish o'lchami, iqlim sharoiti diametri, filtratsiya koefitsienti, turi
6	NChRP 1-34 (1998 y.)	$h_{yem} = D^{0.3} \cdot [0.05 + 0.00004 \cdot A - 0.0024 \cdot d - 0.025 \cdot C_d \cdot (0.5 + K_{oem})]$	Buzilish o'lchami, iqlim sharoiti, ning qalinligi, asos turi, to'shamatsienti, choklar orasidagi masofa, diametri
7	PAVESPEC 3.0 0 y.)	$h_{yem} = D^{0.2475} \cdot [0.2405 - 0.2405 - 0.00118 \cdot V + 0.001216 \cdot A - 0.04336 \cdot K_{oem} - (0.004336 + 0.007059 \cdot (1-d)) \cdot S]$	Buzilish o'lchami, iqlim sharoiti, ning qalinligi, asos turi, eroziya, choklar orasidagi masofa, shtiretri

Bugungi kunda zamонавиъ давлатларда foydalanib kelinayotgan sementbeton qoplamlari avtomobil yo'llaridan foydalanishning afzalligi eng asosiyalaridan biri, sementbeton 100 yil ichida kuchini oshiradi, shuning uchun bizning sementbeton yo'llarimiz 50 yil

yaxshi holatda xizmat qilishi mumkin. Ixtiyoriy rivojlangan davlatni olaylik, masalan, Amerikaning umumiyligi foydalanuvdagisi yo'llarining 60% ni sementbeton qoplamlari yo'llar tashkil qiladi. Avstraliyada 40% ni tashkil qilib kelmoqda. Endilikda O'zbekistonning umumiyligi foydalanuvdagisi yo'llarini 209 496 km deb olsak shundan atiga 3.5% qisminigina sementbeton qoplamlari yo'llarimiz tashkil etadi. Bundan bizga ma'lum bo'ladiki yo'llarimizning asosiy qismini Asfaltbeton qoplamlari yo'llar tashkil qiladi. Asfaltbeton qoplamlari avtomobil yo'llarimizning qurishjarayoni soddarroq va shu bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan tejamkorona ko'rindi, ammo bularning barchasi oz muddatga xolos, sababi ta'mirlash jarayoni murakkab va iqtisodiy tomondan anchayin qimmatga tushadi. Shuning uchun yaroqlilik muddati ham, foydalanish davri ham yuqori bo'lgan sementbeton qoplamlari avtomobil yo'llariga o'tishni tavsiya beraman.

Vaqtning o'zgaruvchan iqlim sharoitlari va transport vositalarining ta'siri ostida avtomobil yo'lning ekspluatatsiya davrida, zinalarning shakllanishiga olib keladigan ko'ndalang choklardagi plitalarning vertikal o'zaro siljishi hisobga olinmagan. Chet el manbalariga ko'ra, sementbeton qoplamasiga yuzasidagi buzilishlarni asosiy turlarining qatnov qismining bo'ylama ravonligining (IRI) yomonlashishiga nisbiy ta'siri ko'rsatilgan (1-rasm).




**1-rasm.** Yoriqli plitalar soni, singan ko'ndalang choklarning foizi va zinapoyalarning qiymatlarining ravonlik ko'rsatkichiga IRI ta'siri.

Zinapoyalarning shakllanishi soxta ko'ndalang siqilish choklarini ishlashi paytidan boshlanadi, deb qabul qilinadi. Chok ishlash paytdan boshlab yukni o'tib ketadigan avtomobillardan plitadan plitaga o'tkazish materialning tabiiy yorilishi va yoriqning sinishi yuzasi va bo'g'indardagi shtirlar bilan ta'minlanishi kerak.

Qoplamlarning zinalarini paydo bo'lishi kuzatiladigan asosiy fizik jarayonlar aniqlandi, ular quyidagilardan iborat:

- ko'ndalang choklar mintaqasida yotgan qatlamlarda qoldiq deformatsiyalarning to'planishi;
- yog'ingarchilik davrida tuproq va asosiy zarrachalarni chayqalish shaklida suyultirish (2-rasm);
- harorat va namlikning gradiyenti bo'lgan plitalarning zarbasi;
- sementbeton plitalarining o'rtacha haroratining o'zgarishi natijasida


bo'g'inlarning vaqtiga vaqtiga bilan ochilishi va yopilishi, bu qo'shma strukturaning yukni plitadan plitaga o'tkazish qobiliyatini pasaytiradi.



### **2-rasm. Qo'shni plitalarning o'zaro siqiljish sxemasi.**

Zinalarning ko'tarilish intensivligi proqnozi o'zaro surilishlar soni bilan o'lchanadi va zinalarning o'sishini belgilaydigan asosiy mezon sifatida, ko'ndalang chocklar hududida plitalarning o'zaro siljishiga sarflangan energiya miqdoriga bog'liq.

Havo haroratining o'zgarishi va quyosh nurlanishining intensivligi, ko'ndalang chocklar ochilishining kengligi o'zgarmas emas va vaqt o'tishi bilan o'zgarishiga olib keladi. Eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, avtomobil g'ildiragidan keladigan yuk qo'shni plitalarning og'ishini keltirib chiqaradi, ularning qiymati chocklarning kengligiga bog'liq. Plitaning qalinligidan yuqori harorat va namlik gradiyenti ham plitalarning chetlarini vertikal ravishda siljitimiga olib keladi. Plitalarning transport yuklaridan himoyalanmaganligi ko'ndalang chocklar zonasida plitalarning qirralarini burish joyidan siljishi bilan deformatsiya holating o'zgarishiga olib keladi va shunga mos ravishda qirralarning rivoqlanish intensivligiga ta'sir qiladi (3-rasm).



**2-rasm. Cementbeton plitalarning transport yuklari va siqilish ta'siri ostida deformatsiyasi sxemasi:**

a - yuqori sirt harorati pastkidan yuqori; b - yuqori sirt haroratidan pastkisi


yuqori.

Ko'ndalang chok zonasida kuchlanish energiyasini hisoblash formulasi:

$$\Delta E_D = \sum_{i=1}^A N_i \cdot (K_M \cdot \frac{(W_{nagr.P_A,\Delta l} \pm W_{korobl.t})^2}{2} - K_M \cdot \frac{(W_{nenagr.P_A,\Delta l} \pm W_{korobl.t})^2}{2}) \quad (1)$$

bu yerda  $\Delta E_D$ - ko'ndalang siqilish chok zonasida zo'riqish energiyasining soatlik o'sishi, J / sm<sup>2</sup>;  $W_{nagr}$ - plitaning yuklangan burchagining egilishi, sm;  $W_{nenagr}$ - plitaning yuklanmagan burchagining egilishi, sm;  $W_{korobl.t}$ - plita burchagining  $t$  soat davomida haroratning burilishidan egilishi, sm;  $K_M$  - M oy uchun yotoq koyeffitsiyenti, MPa/sm;  $A$ -harakatdagi ko'rib chiqilayotgan avtomobillar guruhining soni;  $N_i$ -soatiga A o'qli avtomashinalarining ta'sir soni;  $P_A$  - A guruh uchun hisobiy yuklama, kN;  $\Delta l$  - siqilish choklarining ochilish kengligi, mm.

3-rasmida Veybull qonuni bilan yaxshi tasvirlangan zinalarning qiymati taqsimlash funksiyasi ko'rsatilgan



4-rasm. Zinapoyalar qiymatining taqsimot funksiyasi

Sementbeton qoplamlarida zina ikki yo'nalishda: transport oqimi yo'nalishi bo'yicha - ijobiy va transport harakatiga qarshi - salbiy. Natijalarni o'rghanish shuni ko'rsatdiki, sementbeton qoplamlarida, asos sifatida zaif yoki qumli asos ishlataladi, salbiy zina hosil bo'ladi (5-rasm, a:b).



4-rasm. Sementbeton qoplamlarida zinpoyni shakllanishi: a-ijobiy, b-salbiy


Sementbeton qoplalmali zinalarning paydo bo'lishi yo'lning ravonligini sezilarli darajada yomonlashishiga olib keladi. Bo'ylama ravonlikni (IRI) to'g'ridan-to'g'ri o'lchashdan tashqari, xorijiy amaliyotda empirik formulalar keng tarqaldi, bu IRI qiymatini qoplama yuzasiga zarar etkazish parametrlarining berilgan qiymatlaridan

(yoriqlar, choklarning holati, zinapoyalar) hisoblash imkonini beradi. O'r ganilayotgan magistral yo'llar uchun IRI Xalqaro ravonlik indeksi AQShda qattiq yo'l qoplamalarini loyi halashda ishlatiladigan empirik formuladan foydalangan holda hisoblab chiqilgan.

$$IRI = IRI_0 + 0,013 \cdot C + 0,007 \cdot J + 0,0015 \cdot H + 0,4 \cdot S \quad (3)$$

Bu yerda  $IRI_0$  - boshlang'ich ravonlik m/km; C - ko'ndalang va burchak yoriqlari bo'lgan plitalarning foizi, %; J - buzilgan choklar foizi, %; H - km dagi zinapoyalarning yakuniy qiymati. S - maxalliy sharoitni xisobga oluvchi parametr.

Tekshirilgan obyektlar uchun siqilish choklar zonasidagi deformatsiyalanish energiyasi obyektlarning ekspluatatsiya davri, yo'l to'shamasi konstruksiyasi parametrlari, tabiiy-iqlim sharoitlari, harakat jadalligi va tarkibi hisobga olingan holda aniqlandi (6-rasm).



5-rasm. Ko'ndalang choklar zonasida to'plangan deformatsiyalanish energiyasini zinapoyalar kattaligining o'sish intensivligiga bog'liqligi


Taklif etilayotgan model vaqt intervallari yig'indisi sifatida prognoz qilinadigan davr aks ettirilgan interval, kumulyatif modellar sinfiga kirishi kerak. Bundan tashqari, vaqt oralig'i shunday qabul qilinganki, bu vaqt oralig'ida asosiy ta'sir qiluvchi omillar vaqtga qarab sezilarli darajada o'zgarmasligini hisobga olish mumkin. Bir soat shunday vaqt oralig'ida, plastinka haroratidagi sezilarli o'zgarishlarni va kun davomida harakat jadalligini hisobga olgan holda qabul qilindi.

$$h_{zinapoya}(\bar{T}) = [A \cdot \sum^T \sum_{M=1}^{12} \sum_{D=1}^{30} \sum_{H=1}^{24} \Delta Y e_D(H) + B] \cdot \bar{T} \quad (4)$$


$Y=1$

bu yerda  $A$ ,  $B$  kalibrash parametrlari;  $Y$  - yil;  $M$  - oy;  $D$  - kun;  $H$  - soat;  $\bar{T}$  - prognozlash davri. Bir soatlik intervaldagi energiya  $\Delta Y e D(H)$  ko'tarilishi (1) formula bo'yicha hisoblanadi.

Misol tariqasida, bunday hisoblash natijalaridan biri 7-rasmida keltirilgan, unda qabul qilinadigan asos turining sementbeton qoplamasini plitalari orasidagi zinalarning hosil bo'lish jadalligiga ta'siri ko'rsatilgan.



6-rasm. Zinapoyalarni rivojlanishini prognoz qilish va obyektlarning o'rtacha haqiqiy qiymati.



7-

8-rasm. Asosning turiga bog'liq ravishda vaqt bo'yicha zinapoyaning shakllanish jadalligi

Zinapoyalarning paydo bo'lishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat: ko'ndalang choklar zonasida yotgan qatlamlarda qoldiq deformatsiyalarning to'planishi; yog'ingarchilik davrida tuproq va asosiy zarrachalarni chayqalish shaklida suyultirish; harorat va namlikning gradiyenti bo'lgan plitalarning zarbasi; sementbeton plitalarning o'rtacha haroratining o'zgarishi natijasida choklarning vaqtiga vaqt bilan ochilishi va yopilishi[3].

Bugungi kunda zamonaviy davlatlarda foydalanib kelinayotgan sementbeton qoplamlari avtomobil yo'llaridan foydalanishning afzalligi eng asosiylaridan biri, sementbeton 100 yil ichida kuchini oshiradi, shuning uchun bizning sementbeton yo'llarimiz 50 yil yaxshi holatda xizmat qilishi mumkin. Ixtiyoriy rivojlangan davlatni olaylik, masalan, Amerikaning umumiyligi foydalanuvdagagi yo'llarining 65% ni sementbeton qoplamlari yo'llar tashkil qiladi. Avstraliyada 40% ni tashkil qilib kelmoqda. Endilikda O'zbekistonning umumiyligi foydalanuvdagagi yo'llarini 209 496 km deb olsak shundan atiga 2.5% qisminigina sementbeton qoplamlari yo'llarimiz tashkil etadi. Bundan bizga ma'lum bo'ladiki yo'llarimizning asosiy qismini Asfaltbeton qoplamlari yo'llar tashkil qiladi. Asfaltbeton qoplamlari avtomobil yo'llarimizning qurish jarayoni soddararoq va shu bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan tejamkorona ko'rindi, ammo bularning barchasi oz muddatga xolos, sababi ta'mirlash jarayoni murakkab va iqtisodiy tomondan anchayin qimmatga tushadi. Shuning uchun

yaroqlilik muddati ham, foydalanish davri ham yuqori bo'lgan sementbeton qoplamlari avtomobil yo'llariga o'tishni tavsiya beraman.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ergashev Q. X., Amirov T. J., Xushvaxtov J. N. Yo'l to'shamasi konstruksiyasining sementbeton qoplamasi plitalari orasidagi ko'tarilish hosil bo'lishiga ta'sirini o'rganish. Transportda resurs tejamkor texnologiyalar mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnikaviy konferensiyasidagi maqola. Toshkent 2021y.
2. Sodiqov I.S. Avtomobil yo'llarini transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari. T.: TAYLQEI. 2020. 220 bet
3. Fotiadi Andrey Aleksandrovich. Yo'l to'shamasi konstruksiyasining sementbeton qoplamasi plitalari orasidagi ko'tarilish hosil bo'lishiga ta'sirini o'rganish texnika fanlari nomzodligini olishdagi dissertasiysi. Moskva-2009y